



Building Illustrative Drawing Competences in Students Based on the Principle Of Membership

Askarali Sulaymanov

Tashkent University of Architecture and Construction
professor of the "Design" department, Ph.D.

Sarvar Tursunmuratovich Sobirov

CSPU "Fine Art and Design"
department etc. associate professor ssobirov337@gmail.com

Annotation: The article describes the didactic requirements, content and methodology of organizing illustrative drawing lessons for students at the final stage of visual art education, and the technologies of using visual and expressive tools and techniques. Also, in this process, the stages of art education, the details of the use of coherence procedures between types and genres of visual art are presented

Key words: pictorial activity, illustrative painting, type, genre, composition, technique, tool, use, competence, composition, pictorial literacy, artistic education.

Uzviylik Prinsipi Asosida O‘Quvchilarda Ilyustrativ Rasm Ishlash Kompetensiyalarini Shakllantirish

Asqarali Sulaymonov

TAQI “Dizayn” kafedrası professori, p.f.n.

Sarvar Tursunmurotovich Sobirov

ChDPU “Tasviriy san’at va dizayn”
kafedrası v.b. dotsenti ssobirov337@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tasviriy san’at ta’limining yakuniy bosqichida o‘quvchilarning illustrativ rasm ishlash darslarini tashkil etishning didaktik talablari, mazmuni va metodikasi, tasviriy-ifodaviy vosita va texnikalarini qo‘llash texnologiyalari bayon etilgan. Shuningdek, bu jarayonda badiiy ta’lim bosqichlari, tasviriy san’at tur va janrlari o‘rtasidagi uzviylik tartiblaridan foydalanish tafsilotlari keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: tasviriy faoliyat, illustrativ rasm ishlash, tur, janr, uzviylik, texnika, vosita, foydalanish, kompetensiya, kompozitsiya, tasviriy savodxonlik, badiiy ta’lim.

Umumiy urta ta’lim fanlari tarkibidagi “Tasviriy san’at” o‘quv fanining Davlat ta’lim standartida kompozitsion faoliyat badiiy ta’limning asosiy turlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Boshlang‘ich sinflarda bu turdagi darslar o‘quv dasturiga ko‘ra namunaviy topshiriqlarda keltirilgan mavzular buyicha amalga oshiriladi. Tasviriy san’at ta’limining mazkur blokidagi o‘quv materiallari asosida o‘quvchilarning kompozitsion faoliyatini kompleks tashkil etishda 7-sinfning oxirigi choragi - “Kitobat san’ati” bloki, birinchidan, keng qamrovli imkoniyatlarni taqdim etadi. Ikkinchidan, kitobat san’ati nafaqat 7-sinf tasviriy san’at ta’limini, balki umuman maktab tasviriy san’at ta’limini yakunlovchi qismi bo‘lganligi uchun



ham o'quvchilarning barcha bilimlarini amaliy tatbiqini baholash mumkin bo'ladi, ya'ni tasviriy san'at ta'limining uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida o'quvchilarning Davlat ta'lim standartida belgilangan o'quv kompetensiyalarini egallaganlik darajalarini baholash imkonini beradi. Tasviriy san'at darslarida illustrativ rasm ishlashda amal qilinishi lozim bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning boshlang'ich hamda 5 - 6-sinflarda illustrativ rasm ishlash darslarida o'zlashtirilgan o'quv materiallari asosida shakllantirilgan tasviriy-ijodiy kompetensiyalardan foydalanish;

- tanlangan yoki tavsiya etilayotgan adabiy manbalar yuzasidan o'quvchilarga kerakli tushuntirish berish. Bunda tanlangan asar syujetining murakkabligi, undan tasviriy kompozitsiya yaratish imkoniyatlarining murakkablashib borishini uzviylik prinsipi asosida bosqichma-bosqich to'ldirib borishni nazarda tutish;

- tanlangan manbaning mazmunini taxlil qilish. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga, asosan, mazmun jihatidan uncha murakkab bo'lmagan xalq ertaklari syujetlari asosida ilustrasiyalar ishlash tavsiya etilib, o'qituvchi savol-javob vositasida o'quvchilarda ilustrasiya kompozitsiyasi uchun syujet, mavzu tanlashda o'qituvchining tavsiyalari, maslaxatlari xalq qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, tasviriy san'at ta'limining oxirgi yilida bu tadbirda o'quvchilarga ijodiy faollik va mustaqillik berish tavsiya etiladi;

- illustrativ rasm ishlash darslarida kitobat san'atining badiiy-grafik elementlarini yaratishga kompleks yondashish. Bu turdagi darslarda o'quvchilarga kitobning strukturasi hamda kitobat san'atiga oid terminlar haqida kerakli ma'lumotlar berish lozim bo'ladi. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar faqat ilustrasiya xaqida tushunchaga ega bo'lgan bo'lsalar, 7-sinfda ular kitobat san'atning muqova, forzas, frontispis, shmustitul, titul varag'i, bosh xarf (bosh xarflarning badiylashtirilgan variantlari), zastavka, ilustrasiya, konsovka kabi badiiy-grafik elementlarining lug'aviy ma'nosi, kitob strukturasi hamda arxitektonikasidagi o'rni va funksiyasi haqida tushunchaga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Bu omillar o'quvchilarni tasviriy san'at ta'limining illustrativ rasm ishlash turiga uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida bosqichma-bosqich tayyorlab borish lozimligini anglatadi.

Topshiriqning oxirigi va o'ta muhim bosqichi uch yo'nalishda tashkil etilishi mumkin. Birinchi yo'nalishda o'quvchilarga katta hajmdagi ilustrasiyalar ishlash tavsiya etilsa, ikkinchi yo'nalishda o'quvchilarga jamoaviy faoliyat shaklida kitob maketini ishlash topshirg'i berilishi mumkin.

Birinchi yo'nalishda ishlaydigan o'quvchilar bilan dars jarayonini tashkil etishda tasviriy san'at ta'limining kompozitsion faoliyat turidagi didaktik talablarga amal qilinadi: komponovka, rang turlari, kontrastlik, tasviriy material va vositalar (chiziq (shtrix) turlari – ingichka, qalin, och, to'q, ularning yo'nalishlari va shakllari va h.k.), tasvirlash texnikasi, harakat dinamika, ritm kabi komponentlarga amal qilish talab etiladi.

Ikkinchi yo'nalishda ishlovchi o'quvchilarning faoliyati jamoaviy ijodiy faoliyat tarzida tashkil etilib, bu jarayonni tashkil etishda ularning individual-ijodiy qobiliyatlari, tasviriy imkoniyatlari va layoqatlari, qiziqishlari e'tiborga olinadi. Bu yondashuv shuni anglatadiki, tabiiy ravishda qaysidir o'quvchi kitobat san'atining badiiy grafik elementlaridan biror bir turini, masalan, bosh harfni naqshinkor shaklda bezashga qiziqsa, boshqasi kichik o'lchamdagi rasmlar - zastavkalar ishlashga, yana boshqasi esa kattaroq ilustrasiyalar ishlashga qiziqadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning bu qiziqishlariga differensial yondashgan holda ijodiy jamoa shakllantirishdan iborat bo'ladi. Bu jamoaning ishlarini birlashtirib kitob maketini yasashda o'qituvchining o'zi xam ishtirok etadi. Uning natijasi yaxlit kompozitsiya - kitob maketini yaratish bilan yakunlanadi.

Uchinchi yunalishda bevosita tasviriy faoliyat ko'rsatishdan ko'ra uning tarixi va nazariyasini,



ayrim rassomlarning hayoti va ijodini o'rganishga ko'proq qiziqish bildirayotgan o'quvchilar bilan Davlat ta'lim sgandartining san'atshunoslik asoslari yo'shalishida ish olib boriladi. Bu yo'nalishda o'quvchilar alohida dastur asosida kitobat san'atining tarixiga oid materiallarni o'rganish, shuningdek, ta'kidlab o'tganimizdek, kitob bezovchi rassomlarning hayoti va ijodini o'rganish bilan shugullanadilar. Mazkur yo'nalishda bir asarga bir necha rassom tomonidan ishlangan illustrasiyalarni qiyosiy o'rganish yaxshi samara beradi. Masalan, Telman Muxamedov hamda Abduboqi G'ulomovlarning "O'zbek xalq ertaklari" hamda "Afandi latifalari" asarlariga ishlangan turkum illustrasiyalarni qiyosiy-taxlilii o'rganish metodi asosida o'quvchilarda illustratör rassomlarning ijodiy indavidualligini ochib berish, tavsiflash malakalari shakllantiriladi. Bunday misollarni jaxon tasviriy san'ati, kitob illyustatsiyasi misolida ham ko'plab keltirish mumkin. Servantesning mashxur "Don Kixot" asariga turli zamonlarda turli rassomlar (Xose del Kostil - 8-asr; Gyustav Dore va Onore Dome - 19-asr; Xegenbart, Kukriniksilar, Pablo Pikasso - 20-asr) tomonidan ishlangan ilyustratsiyalar bunga misol bo'la oladi.

Illustrativ rasm ishlash deb nomlangan mazkur darsning uzviy davomi sifatida mazkur ishlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Unda o'quvchilar o'z ijodiy ishlarini sharxlaydilar, boshqalarning ishlarini taxlil qiladilar va baholaydilar.

Tasviriy san'at darslarida illustrativ rasm ishlash darslari didaktik ketma-ketlik, mantiqiy uzviylik va uzluksizlik nuqtai nazaridan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tayyorgarlik bosqichi. O'qituvchi illustrativ rasm ishlash darslariga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelish uchun o'quvchilarga topshiriq va tavsiyalar beradi.


O'qituvchining dars mazmuni va yo'nalishini tushuntirish bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar nimadan boshlab va qanday yakunlanishi xususida aniq ko'rsatma va tavsiyalar beriladi.

Topshiriq yuzasidan eskizlar ishlash bosqichi. Ma'lumki, qanday tasviriy faoliyat, u tasviriy san'atning qaysi turi va janrida amalga oshirilishidan qatii nazar, eskizlar ishlashdan boshlanadi. Shuning uchun ham professional rassomlar asar yaratishdan oldin uning g'oyasini kompozitsion yechimga ega bo'lishi uchun eskiz sifatida bir necha variantlar ishlaydilar. Eskizlarda kompozitsiyaning alohida detallaridan tortib, kompozitsiyaning yakuniy yechimigacha xal etib olinadi. Professional tasviriy faoliyatning bu metodidan maktab tasviriy san'at ta'limida ham foydalanish tavsiya etiladi. Agar o'quvchi o'qituvchining oldindan bergan topshirigiga asosan qoralama-eskizlar ishlab kelgan bo'lsa, ular muxokama qilinib, o'qituvchi tomonidan kerakli tavsiyalar beriladi, tuzatishlar va qo'shmchalar kiritiladi.

Topshiriqni bajarish uchun material, tasviriy-ifodaviy vosita va texnika tanlash bosqichi. Bu jarayonda tanlanadigan materiallarning rang-barangligiga alohida e'tibor qaratiladi va shunga mos texnika tanlanadi. Masalan, kitob bezovchi rassomlar tomonidan qo'llaniladigan, biroq maktab ta'limida kam ishlatiladigan texnologiyalardan biri to'q fonda och materiallarda ishlash texnologiyasi o'zining jozibadorligi, tasvirlash texnikasining ifodaviylik imkoniyatlarining kengligi bilan o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Xususan, "Yilning eng yaxshi tasviriy san'at o'qituvchisi" Respublika ko'rik-tanlovining 2016 yilgi g'olibasi N.Obezinskayaning pedagogik faoliyatida shunday texnika samarali qo'llanib kelinmoqda.

Topshiriqning oxirgi bosqichida ayrim o'quvchilar asar qahramonlarining portretlarini ishlash vazifalarini bajaradilar. Bu illustrativ rasm ishlash darslarining o'ziga xos kulminatsiyasi hisoblanadi. O'quvchilar 5-sinfda o'tilgan "Rangtasvirda portret", "Grafikada illyustratsiya", "Xaykaltaroshlikda portret" mavzularida o'zlashtirilgan kompetensiyalarini shu darsga tatbiq etishlari talab etiladi.

Illustrativ rasm ishlash darslarida o'quvchilarning tasviriy san'atning bironta janrlarida egallangan malakalaridan samarali foydalanishni tashkil etish ham badiiy ta'limning muhim



axamiyatga molik masalalari sirasiga kiradi. Masalan, asar qaxramoni obrazining xarakterini ochib berishda portretidan tashqari manzara, natyurmort, animalistik va batal janri imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Bu omil, birinchidan, “Tasviriy san’at” o‘quv fanidan o‘quvchilar egallagan bilimlarining darajasini baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, o‘quvchilarda bajarilayotgan ishga kompleks yondashgan holda uning mukammalligiga erishish uchun ilgari egallagan bilimlarni yangi egallangan bilimlar bilan aloqadorlikda, uzviy tarzda qo‘llash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va dasturi. - Toshkent: “Ta’lim taraqqiyoti”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi. 6-maxsus son. 1999.-86-167-6.
2. Бивалсева М.В. Иллюстрируем сказки с радостью. “Начальная школа”. №1-2003. С. 59-62.
3. Вилде Т.Н. Иллюстрирование народных сказок на уроках тематического рисования ж. “Начальная школа”. №1 -2003.С. 57-59.
4. Голубева И. Книга и образ. Формирование индивидуального художественного языка ж. “Искусство в школе”. 2009. № 3. С. 14 -18.
5. Ibragimov A., Sulaymonov A. Kitobat san’atiga oid terminlarga izoxli illustrativ lugati. - T.: “Fan”, 2007. - 80 b.
6. Sulaymonov A., Abdullaev N. Tasviriy san’at. 7-sinf. - T.: Gafur Gulom nomidagi NMIU, 2006. - 80 b.
7. Эткин И.К., Азаркович В., Архипова Н. Ршюстратсии к произведениям литературы. 5-8 классы. - М.: “Художник”, 1964. – 32.
8. Sobirov S.T. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. P 98-101.
9. Sultanov X.E, Sobirov S.T, Marasulova I. M. “THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION”. Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020. 15.05.2020. p 108-111
10. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes. International Journal of Social Science Research and Review. <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.
11. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369. Volume 9, Issue 6 June, 2022.
12. Sobirov Sarvar Tursunmurotovich, Sobirov Hasan Tursunmurotovich. DEVELOPMENT OF STUDENT’S ARTISTIC THINKING THROUGH THE USE OF VISUAL AIDS IN PAINTING LESSONS FROM NATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. (ISSN –2767-3758). VOLUME 04 ISSUE 05. 2023. Pages: 68-73. SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 823) (2022: 6. 041) (2023: 7. 491). OCLC – 1242423883. <https://masterjournals.com/index.php/crjps/article/view/1282/1145>.